

YOSHLAR O'RTASIDA PSIXOLOGIK TAFAKKUR VA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Faxritdinov Husniddin Amritdin o'g'li

*Navoiy viloyati Nurota tumani 32-umumta'lim maktabi amaliyotchi
psixologi*

ANNOTATSIYA: *Barchamizga ayonki, inson psixologiyasini tushunish, uni teran tahlil qilish va rivojlantirishga e'tibor berish, deyarli barcha davlatlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. Shu o'rinda aytib o'tishimiz lozimki, psixologiya fani va uning ilg'or vakillari tomonidan XX asr boshlarida asoslab berilgan psixologik xizmat ko'rsatish tizimining qulayligi, butun insoniyat uchun ahamiyatli voqea bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *psixologik tafakkur, ijodkorlik mezonlari, assotsiativ fikirlash, ijodiy tasvir, texnik ijodkorlik, pedagogik ijodkorlik, qobiliyat.*

KIRISH

Ijodkorlik (kreativlik) – bu insonning standart fikrlash doirasidan tashqariga chiqadigan yangi, original g'oyalar, tushunchalar yoki yechimlarni yaratish qobiliyatidir. U turli sohalarda – san'atdan fangacha, biznesdan kundalik hayotgacha o'zini namoyon qiladi hamda muammo va vazifalarga nostandart yondashuvlarni topishga yordam beradi.

Keng fikrlilik. Ijodkorlik insondan muammolarni hal qilishning tanish usullardan uzoqlashishni talab qiladi. Bu turli xil g'oyalarni birlashtirish, mavjud yechimlarni yangi sharoitlarga moslashtirish yoki tubdan yangi tushunchalarni yaratish qobiliyatidir.

Originallik va yangilik. Ijodkorlikning asosiy belgilaridan biri o'ziga xoslikdir. Ijodkor odam san'atda, texnologiyada yoki boshqa faoliyat turida bo'lsin, o'ziga xos, yangi va g'ayrioddiy narsalarni yaratishga intiladi.

Fikrlashning moslashuvchanligi. Ijodkorlik turli vaziyatlarga moslashish va nuqtayi nazarni o'zgartirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Moslashuvchanlik insonga dastlabki g'oyalari ish bermagan bo'lsa ham yangi yechimlarni topish imkonini beradi.

Tasavvur qilish. Ijodiy jarayonning asoslaridan biri rivojlangan tasavvurdir. Bu muayyan harakatlarning mumkin bo'lgan natijalari yoki oqibatlarini, hatto ular hali amalda amalga oshirilmagan bo'lsa ham ko'rish imkonini beradi.

G'oyalar kombinatsiyasi. Ijodkorlik ko'pincha mavjud g'oyalarni birlashtirish va ulardan yangi narsalarni yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu jarayon ongli yoki ongsiz ravishda sodir bo'lishi mumkin.

Tavakkalchilik va tajriba. Ijodiy bo'lish garchi u darhol muvaffaqiyat keltirmasa ham., tavakkal qilishdan qo'rqmaslik va yangi narsani sinashga tayyor bo'lishni anglatadi, Ijodkor odamlar tajribaga ochiq, ular muvaffaqiyatsizlikdan saboq olishadi va innovatsion echimlarni izlashda davom etadilar.

Tafakkur (arabcha fikrlash, aqliy bilish) – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, bilishning olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqichi. Tafakkur iborasi arabcha “fikr” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi.

Tafakkur jarayoni faqat insonning miyasi bilan emas, balki qalbi va ruhiyati bilan ham uzviy bog'liqlikda kechadi. Fikrlovchining ichki dunyosi qanchalik boy bo'lsa, uning fikrlash saviyasi ham, xatti-harakati ham shunga yarasha bo'ladi. Inson fikrining teranligi, tiniqligi, mantiqiyliigi, erkinligi, mustaqilligi, badiiyligi, ijodiyliigi tafakkurning sifatlari hisoblanadi. Inson dunyoni tafakkurning aynan shu shakllari orqali anglaydi, uni o'ziga xos tarzda tasvirlaydi, xulosalar chiqaradi. Ruhiyati uyg'oq, qalbi behalovat odam biror narsaga mehr qo'yadi, o'zida yaratish, ijod qilish, kashfiyot ochishga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj esa uni harakatga undaydi, ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Inson borki, u fikr yuritish qobiliyatiga ega.

Mutafakkir iborasining o'zagi ham fikrdir. Lekin har bir fikr yurita oladigan kishiga nisbatan mutafakkir iborasini qo'llab bo'lmaydi.

Turli xil sohalarda psixologik xizmatning rivojlanib borishi insonlardagi turli xil xususiyatlarni anglab yetish va ijodkorlik ruhini yaqqol payqashga asos bo'ldi. Psixologik tafakkur bilan insoniyatni qanchalik darajada yaratuvchi ekanligi, har bir sohada o'zgacha ijod yondashuvi borligi namoyon qilindi va bir nechta ijodkorlik mezonlari asosida yaqqol o'z aksini topdi. Ijodkorlik nafaqat yozma tarzda balki boshqa turli xil ko'rinishda: rassomlik, haykaltaroshlik va hattoki ta'lim sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda ijodkorning ijod psixologiya har qanday ijodiy asarning yaratilishida qanday ahamiyat kasb etishi haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Tafakkur- inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, u obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayonidir. Insoniyatning boshqa mahluqotlardan ustuvor jihatlaridan bittasi ham tafakkur qilish xususiyatiga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Shu jumladan so'ngi yillarda turli xil sohalar doirasida psixologik tafakkur tushunchasi keng doirada qo'llanila boshladi. Xo'sh, psixologik tafakkur o'zi nima? Psixologik tafakkur bu siz bir qarashdayoq bevosita idrok etib bo'lmaydigan xususiyatlar va atrofdagi dunyo munosabatlari haqida bilim olishga imkon beradi. Shu sababdan ham psixologik tafakkur shakllari bevosita falsafa va mantiq fanlari bilan uzviy bog'liq deb hisoblanadi

Biz insonlar nafaqat ko'rinish, xarakter jihatdan balki psixologik jihatdan ham bir- birimizdan keskin farq qilamiz va shu sababdan har bir insonda o'ziga yarasha shaxs psixologiyasi mavjud bo'lib bu uning boshqalardan farqli individual ekanini isbotidir. Shu o'rinda, insoniyatning eng qiymatli qobiliyatlaridan biri ijodkorlik ekani barchamizga ma'lum va har qanday sohada ham ijod muhim omil sanaladi. Ijodkorlik- bu o'zgalar anglolmagan narsani anglash, yangi g'oyalar asosida takrorlab bo'lmas bebaholikni yaratish deganidir. Shu o'rinda Hindistonlik Osho taxallusi bilan tanilgan buyuk faylasufning ijod haqidagi quydagi jumlasiga e'tibor qaratsak: Ijod- borliqdagi buyuk isyondir. Chindan ham bu ta'rif shu qadar

haqqoniy tarzda berilganki go'yoki har bir ijodkor o'zining ichki dunyosidagi buyuk isyonni butun dunyoga ayon qilish istagida bo'ladi. Shu bilan bir qatorda nufuzli amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, ijodkorlik har kimga xos, lekin ko'pchilikdagi bunday xususiyat atrof muhit ta'siri ostida yuzaga chiqolmay qoladi va asta-sekinlik bilan yo'q bo'ladi.

Deyarli barcha inson biron ijodkorlik qobiliyatiga ega holda dunyoga keladi faqat ulg'aygan sari bu xususiyatni o'stirib, rivojlantirib borish lozim. Aslida har qanday shaxsning yaratgan ijodiy asarida, u xoh rassomlik ishi bo'lsin xoh yozma janrdagi biron asar, muallifining o'z tafakkuridagi g'oyalar, turli xil tasvirlar va boshqalardan farqli jihatlar yaqqol o'z aksini topadi, albatta, bu o'z o'rnida ijod psixologiyasi bilan uzviy bog'liq ekanini isbotlovchi dalildir. Misol uchun hayotga hech bir xayoliy tasavvurlarsiz real nigoh bilan qaraydiga ijodkorlarning asarlarida haqqoniy realizimning guvohi bo'lamiz chunki uning ijod jarayoni to'g'ridan-to'g'ri o'z psixologiyasi bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Aynan asardagi tasvirlarning haqqoniyligi kishini go'yoki o'sha muhitda nafas olishiga, atrofdagi voqea-hodisalarni o'z hayotida sodir bo'layotgandek his qilishiga sabab bo'ladi. Bu jihatdan har birimiz uchun ijod psixologiyasining asl mohiyatini anglash, u haqda teran mulohaza yuritish ko'p hollarda qiyinchilik tug'dirmaydi.

XULOSA:

Insoniyatning tafakkur qilish imkoniyati cheksizdir shu sababdan ham psixologik jihatdan turli xil yondashuvlar asosida har kim o'zidagi "men" ni shakillantrib boradi. Shunisi yaqqol ayonki har bir shaxs o'z hayotining yaratuvchisidir, qanday kasb va qanday yoshda bo'lishdan qat'iy nazar insoniyat ruhida ijod doim yashaydi biroq buni o'z vaqtida namoyon qilish, yanadan unga sayqal berish ko'pchilik uchun mushkul ish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishonov Z., Alimbayeva Sh. Psixologik ong va tafakkur. ' Toshkent: Yangi avlod, 2005. ' 153 b.

2. Akromov F., Lutfullayeva N. Pedagogik psixologiya: ma'ruzalar to'plami. ' Toshkent: TDIU, 2005. ' 200 b.
3. ' URL: <https://ziyo.com/docs/-4417140>(murojaat sanasi:25.05.2023)
4. Shoumarov G'. Ijodkorlikda psixologik tafakkur: ilmiy maqola. □ Buxoro: Xabarchi nashriyot, 1026. □ 26 b.
5. Wolfe T. Creativity in different spheres: Learning among the Creativity of New York. □ Colorado: Hardown UP, 1986. — 177 b.
6. Ошо. Ижод/Рус тилидан Олимжон Салимов // Жахон адабиёти. — 2021. — 292 б.